



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI EKOLOGIYA, ATROF-MUHITNI
MUHOFAZA QILISH VA IQLIM O'ZGARISHI VAZIRLIGI
DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI
SURXONDARYO VILOYATI FILIALI**

Manzil: 190104, Termiz shahar, Amir Temur ko'chasi, 69-uy, Tel: 76-221-47-75

**DAVLAT EKOLOGIK EKSPERTIZASI
XULOSASI**

TARTIB RAQAM 01-02/10-1053

HUJJAT TURI Atrof-muhitga ta'sir to'g'risidagi ariza loyihasi

Davlat ekologik ekspertizasi buyurtmachisi: ЭШОНИ ФАЙЗУЛЛАХОН МАСЖИДИга berildi.

STIR: 203104313

Obyekt nomi: Qiziriq tumani Karmaki MFY, 7-Amir Timur ko'chasi, 1-uy manzilgoxidan "Eshoni Fayzulaxon Jome Masjidi" qurilishi va faoliyatining "Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi anketa"

Loyihalarini ishlab chiquvchi nomi: ЭШОНИ ФАЙЗУЛЛАХОН МАСЖИДИ

STIR: 203104313

Davlat ekologik ekspertizasi mas'ul eksperti: KAROMATOV NAJMIDDIN
MUSSOXONOVICH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 7-sentabrdagi 541-son qarori bilan tasdiqlangan 1-ilovaga muvofiq, ushbu davlat ekologik ekspertizasi obyekti **atrof-muhitga ta'sir ko'rsatishning IV toifa toifasining 7-bandiga mansub.**

O'tkazilgan davlat ekologik ekspertizasi natijasi: **Ijobiy xulosa**

Davlat ekologik ekspertizasi xulosasi: **Ilovasiz huquqiy hujjat hisoblanmaydi**

Berilgan sana: 15.10.2024

Amal qilish muddati: 15.10.2027

Ekologik ekspertiza obyektining ekologik talablarga muvofiqligi, joylashuv nuqtalari koordinatalari, atrof-muhitni muhofaza qilish chora-tadbirlari, bajarilishi shart bo'lgan talablar va boshqalar to'g'risida ilovada keltirilgan O'zbekiston Respublikasi ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Davlat ekologik ekspertiza markazi va filiallarining ekspert xulosasi ushbu davlat ekologik ekspertizasi xulosasining ajralmas qismi hamda unda belgilangan talablar bajarilishi shart hisoblanadi.

Izoh: Buyurtmachi tomonidan davlat ekologik ekspertizasi xulosasida nazarda tutilgan ekologik talablarga rioya etilmaganda, davlat ekologik ekspertizasi xulosasi qonunchilikda belgilangan tartibda bekor qilinadi.

Direktor



A.Baxshiqulov

Davlat ekologik ekspertizasi natijalari bo'yicha Ekspert xulosasi talablari

Davlat o'rmon fondiga kirmaydigan daraxt va butalarning qimmatbaho navlarining kesilishiga moratoriyning amal qilishi muddatsiz davrga uzaytirilgan bo'lib, obyekt qurilishi va faoliyatida atrofda mavjud daraxtlarning qimmatbaho navlarini kesish, kundakov qilish, shikastlantirish yoki yo'q qilishga yo'l qo'yilmasin. (2021 yil 30 dekabrda PF-46-sonli Farmoni)

Qurilish jarayonida kam qimmatli daraxt va butalar xalaqit bergan taqdirda belgilangan tartibda viloyat ekologiya boshqarmasiga murojaat etilishi talab etiladi. (2022-yil 22-fevraldagi 86-son qaror)

Barcha turdagi qurilish chiqindilari qoida tariqasida chiqindi chiqaruvchilar tomonidan ustuvor ravishda takroriy foydalanishga, utilizatsiya qilishga, qayta ishlashga yo'naltirilishi yoki mazkur chiqindilarni to'plash, tashish, utilizatsiya qilish va (yoki) qayta ishlash bilan shug'ullanuvchi boshqa yuridik shaxslarga va yakka tartibdagi tadbirkorlarga topshirilishi (berilishi), realizatsiya qilinishi, shuningdek, utilizatsiya qilinmaydigan yoki qayta ishlanmaydigan qurilish chiqindilari ekologik jihatdan xavfsiz tarzda ko'milishi ta'minlanishi shart. (VM 2021 yil 28 yanvardagi VM 40-son qarori).

Agar ekspertiza obyekti davlat ekologik ekspertizasining xulosasi berilgan kundan boshlab uch yil mobaynida realizatsiya qilinmasa, davlat ekologik ekspertizasining ijobiy xulosasi yuridik kuchga ega bo'lmaydi. (07.09.2020 yildagi VM 541-son qarori).

"Yashil makon" va "Yashil belbog'" umummilliy dasturiga muvofiq obyekt binosiga tutash hududiga obodonlashtirish ishlarini amalga oshirish va shu hudud iqlimiga moslashgan daraxt va bo'talarni ekish. (2023 yil 23 noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni). (2023-yil 23-noyabrdagi PF-199-sonli Farmoni)

Toza texnologiyalardan samarali foydalanishda elektr energiyasini imkon qadar tejovchi va obyekt faoliyati jarayonida atrof-muhitga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan energiya tejovchi muqobil energiyalardan foydalanishda quyosh panelli batareyalari o'rnatilishini ta'minlash. (O'z.Res. Prezidentining 2023-yil 16-fevraldagi PQ-57-son qarori)

Obyektda xosil bo'ladigan oqova suvlar uchun lokal tozalash inshooti bilan ta'minlansin. (2023-yil 31-maydagi PQ 171-son qarori)

Obyekt rekonstruksiya, modernizatsiya qilingan, qayta tashkil etilgan, kengaytirilgan yoki joylashuvi o'zgartirilgan taqdirda atrof muhitga ta'sir baholanadi va atrof muhitga ta'sirni baholash to'g'risidagi ariza loyihasi ishlab chiqiladi va davlat ekologik ekspertizasidan o'tkazish uchun taqdim etiladi. (07.09.2020 yildagi VM 541-son qarori).

NAZORAT UchUN

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi Davlat ekologik ekspertizasi markazi DM Surxondaryo viloyat filialiga Qiziriq tumani Karmaki MFY, 7-Amir Timur ko'chasi, 1-uy manzilgoxidan "Eshoni Fayzulaxon Jome Masjidi" qurilishi va faoliyatining "Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonot loyihasi"ni ro'yobga chiqarilishiga e'tiroz bildirmaydi.

Surxondaryo viloyati Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi boshqarmasi: Qiziriq tumani Karmaki MFY, 7-Amir Timur ko'chasi, 1-uy manzilgoxidan "Eshoni Fayzulaxon Jome Masjidi" qurilishi va faoliyatining "Atrof-muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risida"gi ariza loyhasida keltirib o'tilgan ekologiya va atrof-muhit muhofazasiga oid chora-tadbirlarni o'z vaqtida bajarilishini nazoratga olishi talab etiladi.



Ma'sul ekspert: KAROMATOV NAJMIDDIN MUSSOXONOVICH

Obyekt haqida qisqacha ma'lumot

O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi "Davlat ekologik ekspertizasi markazi" DM Surxondaryo viloyati filialiga Qiziriq tumani Karmaki MFY, 7-Amir Timur ko'chasi, 1-uy manzilgoxidan "Eshoni Fayzulaxon Jome Masjidi" qurilishi va faoliyatining "Atrof muhitga ta'sir ko'rsatilishi to'g'risidagi bayonoti va boshqa tegishli hujjatlari taqdim etilgan.

Loyiha O'zbekiston Respublikasi «Ekologik ekspertiza to'g'risida»gi qonuni hamda Vazirlar Mahkamasining 07.09.2020 yilda 541-sonli qarori bilan tasdiqlangan «O'zbekiston Respublikasida Davlat ekologik ekspertizasi to'g'risida»gi Nizom va boshqa me'yoriy qo'llanmalari asosida ko'rib chiqildi.

Qiziriq tumani qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bo'limining 05.09.2024 yildagi Bino va inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda o'z hududida qo'shimcha bino va inshootlarni qurish uchun 144888276-son ruxsatnomasiga asosan Qiziriq tumani Karmaki MFY, 7-Amir Timur ko'chasi, 1-uy manzilgoxidan "Eshoni Fayzulaxon Jome Masjidi" qurilishi ko'zda tutilgan. Obyektning umumiy maydoni 2500 m²ni tashkil etadi.

Joylashgan obyektning fazoviy kordinatlari:

1. 37.733665 67.318853
2. 37.733627 67.319126
3. 37.733466 67.319094
4. 37.733525 67.318746
5. 37.733665 67.318853

Obyekt atrofdan quyidagilar bilan chegaralangan:

Shimoldan:- Aholi xonadonlari bilan;

Sharqdan:- Aholi xonadonlari bilan;

Janubdan:- Ichki yo'l bilan;

G'arbdan:- Ichki yo'l bilan.

Obyektning umumiy yer maydoni 2500 m², qulish osti maydon 372,88 m², qolgan yer maydoni, taxoratxona, xojatxona, bostirma, betonlangan yo'l va yo'laklar, kukalamlashtirsh maydoni tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Obyektida taxoratxona sanitariya gigiyena talablariga javob beradigan darajada aloxida ichimlik suvi gigienik talablar va sifatini nazorat qilish, davlat standartlariga mos keladigan ichimlik suvi quvurlari o'tkazilib qurilishi ko'zda

tutilgan bo'lib, binoga mustaxab va taxorat uchun talablarga mos keladigan sanitariya gigiyenik jixozlari o'rnatilish, suv isitishda elektr energiyasida ishlaydigan mayishiy texnikalardan foydalanish ko'zda tutilgan.

Xavo xarorati eng issiq iyul oyidagi o'rtacha xarorati 350S absalyut maksimum $+36 - 46,0^{\circ}\text{C}$ gacha kutariladi. Xavoning eng sovuq ya'ni yanvar oyida esa xavoning o'rtacha xarorati $-4,0^{\circ}\text{S}$, absalyut minimum $-15,5^{\circ}\text{S}$ gacha tushib ketadi.

Loyihada obyekt xonalari sovuq kunlarida isitishda elektr maishiy uskunalaridan foydalaniladi. Atmosfera havosiga ifloslantiruvchi moddalar juda kam miqdorda chiqarilishi, obyekt ish kuni yiliga 365 kunni tashkil etadi va 8 ta ish o'rni yaratilishi loyihada bayon etilgan.

Loyihada toza ichimlik suvi yaqin joylashgan mahalla suv tarmog'iga tizimidan foydalanishi va bir yilda suv sarfi $394,8 \text{ m}^3/\text{yil}$ ni tashkil etishi, shundan ishchi xizmatchilar uchun ichimlik suv miqdori $43,8 \text{ m}^3/\text{yil}$ ni, faoliyat davomida hosil bo'ladigan oqova suvlar shahar kanalizatsiya tarmog'iga ulanib chiqarib yuborilishi bayon etilgan.

Obyektning yil davomidagi ish faoliyatida $9,772 \text{ tn/yil}$ miqdorda maishiy va qattiq chiqindilar ajralib chiqishi me'yoriy qo'llanmalarga asosan hisoblab chiqilgan bo'lib, faoliyati davomida 4-5 darajali chiqindilar ikkilamchi qayta ishlash korxonalariga topshirilishi bayon etilgan. Qolgan chiqindilar alohida idishlarda usti yopiq holda saqlanadi va to'plangan qurilish va maishiy chiqindilar tegishli korxonalar tomonidan shartnoma asosida tuman chiqindihonasiga chiqarib olib ketilishi loyihada ko'rsatib o'tilgan.

Taqdim etilgan loyihada atrof-muhitga ta'sir etishining oldini olish chora tadbirlarini olib borish nazarda tutilgan.



Ma'sul ekspert: KAROMATOV NAJMIDDIN MUSSOXONOVICH